

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ASARNI TANISHTIRISH ASOSIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

M.Berdiyeva

Termiz Davlat Pedagogika Instituti dotsenti

Abdirafimova Muxlisa Abduxoliq qizi

Pedagogika Instituti Maktabgacha ta'lim

yo'nalashi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda pedagog tarbiyachilar bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalash orqali ijodkorligini rivojlantirish, shuningdek, badiiy asarlarni tanishtirish jarayoni qay tartibda olib borilishi hamda turli yosh guruhlarida qanday usullar orqali tushuncha berish samarali ekanligi va o'qilgan asarni mustahkamlash metodlari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy asar, bolalar adabiyoti, idrok, ijodkorlik, sahnalashtirish, turli yosh guruhlari, xalq og'zaki ijodi, mnemonika, takroriy o'qish, nutq, janrlar, asar mazmuni

KIRISH

Yaqin o'tmishdan ma'lumki xalq og'zaki ijodi og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Momolarimiz, onalarimiz farzandlarini uxlatish oldidan allalar, ertaklar, hikoyalar, dostonlar, qissalar va she'riy parchalar aytib berishgan. Hozirgi kunda ham maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga badiiy asarlar tanishtirish asosida faoliyat olib boriladi. Bu bolalarga nega kerak va qanday ta'sirga ega degan savol tug'iladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish birinchi navbatda bolalar nutqini rivojlantiradi, bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalash orqali ijodkorligi shakllantiriladi, shu bilan bir qatorda, ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning fantaziyasini rivojlantiradi. Ertaklarda hokisor insonlarni himoya qilish, yomonlarni jazolash bolalarni adolatparvar bo'lishga undaydi. Bolalar asarlardan o'zlashtirgan ma'lumotlarni real hayot bilan solishtirib boshlaydi va ijobiy qahramonlarga taqlid qila boshlaydi. Bundan tashqari bolalarni estetik va axloqiy tarbiyaning rivojlanishida badiiy adabiyotlarni roli benihoya kattadir. Bolalar ertaklar ichida yashaydi va ertak qahramonlari emotsiyasiga kiradi, ya'ni qahramonlar kulganda jilmayadi, xafa bo'lsa g'amgin bo'ladi, baxtli bo'lsa xursand bo'lishadi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularini, hamdardlik, yaxshilik, do'stlik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a'zolariga nisbatan g'amxorlik ko'rsatish kabi his-tuyg'ularini shakllantirishga yaqindan yordam beradi. Badiiy asarning shakli, xususiyatlari, qofiyasi, ritmi va boshqa jihatlari bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Chunki tarbiyalanuvchilarni qabul qilish jarayoni ularni yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ifodalanadi

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarga badiiy adabiyotni tanishtirishda qo'llaniladigan usullardan biri bu sahnalashtirish usulidir. Bunda bolalarga turli kichik-kichik epizodlar beriladi va sahna ko'rinishi tarzida umumlashtiriladi. Bunda metod orqali bolalarning sensor matorikalari, kreativligi, kirishuvchanligi, chaqqonligi va boshqa bolalar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Bolalarga she'rni oson yod oldirishda mnemonik yondashuvlardan foydalaniladi. Mnemonikada she'rning qator boshidagi so'zini shartli ifodalar bilan belgilashga e'tibor qaratiladi. O'shanda bolalar belgilarga qarab qator boshidagi so'zni eslaydi va yoddan aytib beradilar. Bu bir necha marotaba takrorlanadi va qarabsizki, bolalar qiyinchiliklarsiz she'rni yodlab olishadi.

Bolalarni adabiyotlar bilan tanishtirishning yana bir usuli tinglash va tushunishdir. Tarbiyachi ta'sirli, ifodali va rolga kirib kitobni mutolaa qilsa bolalarni tinglab tushunishida juda yaxshi natija beradi. Tinglangan asarni tahlil qilish, ma'nosini tushunish, o'z so'zlari bilan bayon qilish badiiy asar bilan ishlash bosqichlari hisoblanadi. Badiiy asarni taqdimot usulida namoyish qilish usuli ham mavjud. Tajriba-sinov ishlari davomida ikkala metodni bog'lash "Ifodali taqdimot" usuli deyiladi. Bunda ifodali o'qib eshittirilgan asardagi rollar yopiq rasmlar tanlash yordamida taqsimlanadi. So'ngra rollar ijrosi bo'yicha har bir bolaga topshiriqlar tushuntiriladi.

Kichik guruhdan boshlab bolalarni adabiy asar janrlarini ajrata olishga o'rgatish lozim. Tarbiyachi bolalarga badiiy asarni janrini aytish kerak. Kichik makabgacha yoshdagi bolalarga kitobdan o'qib bermasdan hikoya qilib bergani maqsadga muvofiqdir. Bunda ham bolalarni tushunish malakalari rivojlanishi bilan bir qatorda ularni o'zgalar nutqini eshita olish qobiliyati ham shakllanadi.

O'rta guruhda kelib badiiy asarni idrok etish muhim rol o'ynaydi. Bolalar asardagi qahramonlarga bo'lgan munosabatini aniq ifoda eta boshlaydi. Tarbiyachi turli savollar ila bolalarga murojaat qiladi. Badiiy asarni to'g'ri tahlil qilish badiiy

nutqning qimmatini oshiradi, bolalarni mustaqil hikoya qilishga tayyorlaydi va bu bolalarni o'z fikrini ishochli va to'laqonli namoyon qilishga poydevor bo'ladi.

Katta guruh bolalari badiiy asarlar mazmunining ayrim xususiyatlarini, mazmunining ifodaliligini chuqurroq tushunib olish qobiliyatiga ega. Ushbu guruh tarbiyalanuvchilari asarning janrini birini ikkinchisidan bimalol faqrlay oladilar. Asar o'qib yoki hikoya qilib berilgach, bolalarga beriladigan savollar asarning mazmunini aniqlashga, uni tushunishga yordam berishi hamda qahramonlar xatti-harakatini baholay olishga o'rgatishi kerak.

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisining asarni dastlabki o'qishdan maqsadi tinglovchilarga asarni san'at asari sifatida yetkazishdir. Ular chuqurroq tahlil qiladi va diqqati badiiy ifoda vosilariga yo'naltiriladi.

O'qilgan asarni eslab qolishning bir qancha metodik usullari mavjud: takroriy o'qib berish, hikoya qilib berish, sahnalashtirish va boshqalar.

Takroriy o'qib berish. Bolalarga o'qib berilgan hikoya yoki kichik asar yana ikki yoki uch marotaba qayta o'qib beriladi. Bu usul xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishiga ko'maklashadi.

Badiiy asarni sahnalashtirish. Ushbu usul ham samarali usullardan hisoblanadi. Bunda bolalar rolga kirib, miriqib o'ynash bilan bir qatorda ushbu asar uzoq muddat xotirasida muhrlanadi. Bundan tashqari bolalarda tortinchoqlik hissini yo'qotadi va erkin muloqotni shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarning ularning ijodkorligini rivojlantirishdagi ahamiyati benihoya kattadir. Badiiy adabiyot bolalarni nutq madaniyatini o'stirishi bilan bir qatorda ularda kitoblarga bo'lgan muhabbat hissini, qiziquvchanlik, mehr tuyg'usini shakllantiradi. Agressivlikni bartaraf etish bilan bir qatorda, atrof muhitdagi muomala madaniyatini ham ma'lum bir doirada shakllantirishga asos bo'ladi. Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ko'proq badiiy asarni rolga kirib, ravon, tushunarli va aniq qilib o'qib berishi kerak. Shu o'rinda bolalardan ham qayta hikoya qilib berishini so'rash ham maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda bolalarni eslab qolish qobiliyati hamda kitoblarni asrash va ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmasi ham shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. "Ilk qadam" Davkat o'quv dasturi- T.2022
2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020-yildagi 802-son qarori 1-ilovasi
2. "Ilk qadam" Davkat o'quv dasturi- T.2022
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi davlat standarti.-T.2020
4. M.R.Qodirova, F.R Qodirova "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent 2006-yil 34 b
5. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" –T "Ma'naviyat".2019
6. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T:2013
7. R. Jo'raqulov "Bolalar nutqini o'stirish" Samarqand, 1994-yil 89 b